

YANGI O'ZBEKISTONDA VA DUNYO JAMIYATIDA GENDER TENGLIK BORASIDAGI MUAMMOLAR VA ISLOHOTLAR

Kenjayeva Mehrinur Nurmat qizi

Toshkent shahar yuridik texnikumi

Davlat-huquqiy faoliyat yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi XXI asrdagi Yangi O'zbekiston va dunyoning boshqa davlatlarida gender tenglik to'g'risida olib borilayotgan islohotlar, muammolar, jamiyatdagi ayol-qizlarning o'zni ularga yaratib berilayotgan imkoniyatlar va ayol-qizlarga nisbatan bo'layotgan turli xildagi zo'ravonliklarga qarshi chora-tadbirlar to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ayol-qizlar, gender tenglik, islohotlar, jamiyat va davlat

Аннотация: В данной статье рассматриваются реформы, проблемы, роль женщин и девушек в обществе, которые проводятся по обеспечению гендерного равенства в Новом Узбекистане и других странах мира в 21 веке.

Ключевые слова: Женщины и девочки, гендерное равенство, реформы, общество и государство.

Annotation: In this article, the reforms, problems, the role of women and girls in society, which are being carried out on gender equality in New Uzbekistan and other countries of the world in the 21st century.

Key words: Women and girls, gender equality, reforms, society and the state

KIRISH

Ma'lumki bir jamiyatni mukammal deb aytish qiyin. Negaki hamma narsa ham ideal emas lekin inson hayoti bilan juda ham muhimdir va bu kabi salbiy oqibatlarni oldi olinmasa jamiyat o'z-o'zidan inqirozga yuz tutaveradi va oxir oqibatda bu jamiyatning nobud bo'lishiga sabab bo'ladi. Shulardan biri bu gender tenglikdir. "Gender tenglik" iborasi faqatgina ayol-qizlarga emas balki erkaklarga nisbatan ham aytiladi. Lekin afsuski ayol-qizlarga bo'layotgan har xil turdagi zo'ravonliklarga shunchaki qo'l siltab qarab turaversak jamiyatning yuksalishiga emas aksincha halok bo'lishiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lib qolaveramiz. Aslida, erkag-u ayol, o'g'il, qiz teng huquqli fuqaro deya e'tirof etiladi. Ya'ni, inson huquqi konstitutsiyada aniq belgilab qo'yiladi. Hech kim huquqiy tomondan kamsitilmaydi, har kim jamiyatda o'ziga munosib o'rin topishiga haqli. Barbir, nimagadir hech bir mamlakat "bizda gender tenglik joyida" deb maqtana olmaydi, chunki hali hal qilinmagan, yechimini topmagan masala ko'p bunga milliy an'analar, urf-odatlar sababmi? Yoki mahalliy udumlar yoki oilaviy qadriyatlarmi? Ayni savolga javob topish uchun mutaxassislar hali ko'p ishlashi kerak.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sayyoramiz aholisining yarmini ayollar, qizlar tashkil etadi, bu insoniyat salohiyatining yarmi, degani. Shu nuqtai-nazardan gender tenglik insonning eng muhim huquqlaridan biri bo'lib, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni ta'minlashda, barqaror rivojlanishga

asoslangan holda inson salohiyatini boricha amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. Ayollarning jamiyat hayotidagi ishtirokini kengaytirish mehnat mahsuldorligini oshirishi, iqtisodiy o'sishini ta'minlashi allaqachon isbotlangan. Shunday bo'lsada insoniyat ayol va erkak tengligini ularning huquqi va imkoniyatidan kelib chiqqan holda to'liq ta'minlashi uchun hali ancha ish qilishga to'g'ri keladi. Birinchidan, gendir zo'ravonliklarning har qanday ko'rinishga barham berish kerak, ayollar va qizlar hamda erkaklar va bolalar uchun ta'lim olish, soliqni saqlash, iqtisodiy resurslardan foydalanishda birdek sharoit yaratilishi lozim. Bundan tashqari ularning siyosiy hayotdagi ishtirokida ham teng imkoniyat yaratilishi zarur. Bu xotin-qizlarning ish topishi, rahbarlik lavozimiga tayinlanishi masalasiga ham tegishli.

"Gendir tenglikga erishish, ayol va qizlar huquqi, imkoniyatini kengaytirish hozir yakuniga yetkazilmagan vazifa bo'lib qolmoqda va ayni muamo bugungi kunda inson huquqlari sohasidagi ulkan muammo hisoblanadi", - deydi BMT Bosh kotibi Antoniu Gutterish.

Darvoqe, mashhur masala bilan eng ko'p shug'ullanayotgan xalqaro tuzilma, shubhasiz- BMT Tashkilot Nizomining 1-bandida inson huquqi va asosiy erkinligini uning irqi, jinsi, til va diniy mansubligiga qaramasdan, hurmat qilish va rag'batlantirish bo'yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshirish zarurligi aks etgan.

BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi faoliyat boshlagan yildayoq Ayollar holati bo'yicha komissiya ta'sis etilgan. Mazkur komissiya faqat gendir tenglik va ayollar ahvolini yaxshilash masalalari bilan shug'ullanadigan idoraga aylandi.

Ayollar va inson huquqi: Inson huquqi umumjahon deklaratsiyasida gendir tenglik xalqaro huquqning inson huquqi sohasidagi muhim qismi hisoblanadi. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan ushbu hujjatda "Barcha insonlar o'z qadr-qimmatini, huquqi bilan erkin va teng holda dunyoga keladi" deyilgan. O'tgan asrning 70-yillarida ko'pgina mamlakatlarda xalqaro feministlar harakati kuchaya boshlagani sababli BMT Bosh Assambleyasi 1975-yilda Xalqaro ayollar yili sifatida e'lon qildi va Mexiko shahrida ilk bor ayollar ahvoli bo'yicha Butunjahon konferensiyasini tashkil etdi. Konferensiyada tavsiyasiga ko'ra 1976-1985-yillar BMTning ayollar o'n yilligi etib belgilandi va o'n yillik vazifalarini amalga oshirish uchun ixtiyoriy badal Fondi ta'sis etildi. Taasufki, gendir tengsizlik iqtisodiy sohada ham, siyosiy sohada ham saqlanib qolgan. Mutaxassislar xulosasiga ko'ra, yillar davomida mehnat bozorida ijobiy o'zgarish amalga oshirilganiga qaramay, hali ham xotin-qizlar erkaklarga nisbatan o'rtacha 24 foiz kam haq olar ekan. 1995-yil parlamentda ayollar ulushi o'rtacha 11,3 foizni tashkil etgan, 2015-yilga kelib ushbu ko'rsatkich, atigi, 25 foizga yetgan. O'zbekistonda bu ko'rsatkich keyingi yillarda 32 foizga ko'tarildi. Bizda ahvol qanday? Qayd etish joiz, O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash va ayollar huquqi, imkoniyatini oshirish masalasida qator qonun hujjatlari qabul qilingan. Prezidentning xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash, xususi gender tenglik va ayollar tadbirkorligini rivojlantirish farmon va qarorlari mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan muhim hujjatlardir. Bosh qomusimizga ya'ni konstitutsiyamizda ham ayollar va erkaklar teng huquqqa egaligi haqida alohida modda kiritilgan, xotin-qizlarga ta'lim

olish, kasbiy tayyorlanish, ish, mehnat uchun rag'batlantirish va xizmat yuzasidan ko'rsatishda teng huquqiy imkoniyat yaratilishi shartligi ko'rsatilgan. So'nggi to'rt yilda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtiroki etishini ta'minlash, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, sohaga oid 25ta qonunchilik hujjati qabul qilindi. Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida xotin-qizlar tashkil etdi. O'zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa ko'tarildi.

Boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 40-foizga, oliy ta'limda 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga yetdi.

Xotin-qizlar ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, ular bilan manzilli ishlash maqsadida "Ayollar daftari" tizimi joriy etilib, Davlat byudjetidan har yili 300 mlrd so'm mablag' ajratib berish yo'lga qo'yildi. Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yo'q yolg'iz ayollarning o'qish to'lovlarini qoplab berish tizimi joriy etilib, oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar soni ikki baravarga ortdi. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida 224-mingdan ortiq xotin-qizlar jami 6,9 trln so'm miqdorida imtiyozli kredit ajratildi.

Sohada olib borilayotgan ishlar xalqaro reytinglardagi mamlakatimiz o'rniga ijobiy ta'sir ko'rsatib, Jahon bankining Ayollar biznes va qonun indeksida O'zbekiston 2020-yilda xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik bo'yicha ahamiyatga molik islohotlarni amalga oshirgan 27 ta davlat qatoriga kiritildi va 5 pog'onaga yuqorilab, 190 ta davlat orasida 134-o'rinni egalladi.

XULOSA

Dunyoda xotin-qizlar roli katta ahamiyatga ega ya'ni gender tenglikda faqatgina ayollargina emas balki erkaklarga nisbatan ham ishlatiladi. Lekin dunyodagi har bir xalqning, davlat va millatlarning o'z tarixiy an'analari, urf-odatlar, ma'naviy qadriyatlar bor va ularga suyanib yashaydi. Bunday tushunchalar turmush kechirish jarayonida inobatga olinadi albatta ammo bu degani ayol kishi erkak kishidan pastroq turadi degani emas. Har tomonlama farovon hayotga erishishni maqsad qilgan jamiyat o'z a'zolarining irqi, jinsi, tili va diniy mansubligiga qaramay, huquqiy tengligini ham to'la-to'kis ta'minlashi o'ta muhim masala ekanligini unutmasligi lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) Saidmurod Rahimov O'zA KRIA Qoraqalpog'iston axborot agentligi 6-iyun 2022-yil
- 2) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
- 3) Yangilanayotgan O'zbekistonda gender tenglikning huquqiy asoslari 2022-yil 12-iyun
- 4) Yuristlar malakasini oshirish markazi 29.03.2023 Yurmarkaz@adliya.uz 04.11.2024.
- 5) O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Senatining qarori 29.05.2021 SQ-297-IV-son
- 6) Bugungi gender tengligi-barqaror ertangi kun uchun 07.Mart.2022

